



YOSHLARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH: INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Yo'ldoshev Jo'rabek

Boboyev Nodir

Shahrisabz Davlat

Pedagogika Instituti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladigan interfaol metodlar va ularni samarali tatbiq etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqolada o'quvchi yoshlarni ijodiy fikrlashga o'rgatishning dolzarbligi, interfaol metodlarning ahamiyati va samaradorligi yoritilgan. Zamonaviy ta'limda muhim o'rin tutuvchi metodlar — muammo asosida o'qitish, "aqliy hujum", klasterlash va rolli o'yinlar amaliyotda sinovdan o'tkazilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar yoshlarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, interfaol metodlar, ta'lim jarayoni, innovatsion pedagogika, interfaol ta'lim, zamonaviy, innovatsiya, boshlang'ich ta'lim, metodika, texnika, sifat.

Абстракт: В данной статье рассматриваются интерактивные методы, служащие развитию творческого мышления, и пути их эффективной реализации. В статье подчеркивается актуальность обучения школьников творческому мышлению, важность и эффективность интерактивных методов. На практике проверены важные в современном образовании методы – проблемное обучение, «мозговой штурм»,



кластеризация и ролевые игры. Результаты показывают, что интерактивные методы высокоэффективны в формировании самостоятельного мышления и творческих подходов молодежи.

Ключевые слова: креативное мышление, интерактивные методы, образовательный процесс, инновационная педагогика, интерактивное образование, современное, инновация, начальное образование, методика, методика, качество.

Abstract: This article examines interactive methods that serve to develop creative thinking and ways to effectively implement them. The article emphasizes the relevance of teaching schoolchildren creative thinking, the importance and effectiveness of interactive methods. Important methods in modern education have been tested in practice - problem-based learning, brainstorming, clustering and role-playing games. The results show that interactive methods are highly effective in developing independent thinking and creative approaches in young people.

Key words: creative thinking, interactive methods, educational process, innovative pedagogy, interactive education, modern, innovation, primary education, methodology, methods, quality.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim berishning an'anaviy usullari ko'pincha o'quvchilarning faqat bilim olishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Ammo ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularning mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni yechish ko'nikmalarini oshiradi. Ushbu maqola interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Hozirgi globallashuv davrida ta'limning asosiy vazifasi yosh avlodni ijodiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega



bo'lgan shaxs sifatida shakllantirishdir. Buning uchun ta'lim jarayonida o'qitishning interfaol metodlarni keng joriy qilish talab etiladi.

1. Interfaol metodlarning mohiyati

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Interfaol metodlar o'quvchilarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undovchi texnikalar bo'lib, ular orqali o'quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki uni amaliyotda qo'llashga ham o'rganadilar. Quyidagi metodlar eng samarali hisoblanadi:

Muammo asosida o'qitish: O'quvchilar muayyan muammoni yechish uchun mustaqil tahlil va tadqiqot olib boradilar.

"Aqliy hujum" (brainstorming): Yangi g'oyalar ishlab chiqish va ijodiy yechimlarni izlash jarayoni.

Klasterlash: Tushunchalar va g'oyalarni grafik shaklda guruhlash orqali o'zaro bog'liqlikni tushuntirish.

Rolli o'yinlar: Real hayotdagi vaziyatlarni modellashtirish orqali amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

2. Metodlarning amaliyotga tadbiqi



Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalaridagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni **Blum taksonomiyasi** deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemallashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Tadqiqot davomida 50 nafar 10–11-sinf o'quvchilari bilan o'quv tajribasi o'tkazildi. Ushbu metodlar sinovdan o'tkazildi:

Muammo asosida o'qitish: O'quvchilar "Atrof-muhitni muhofaza qilish" mavzusida yechimlar ishlab chiqishdi.



"Aqliy hujum": "Raqamli texnologiyalar ta'limga qanday ta'sir qiladi?" savoli bo'yicha g'oyalar ishlab chiqildi.

Klasterlash: "Suv resurslarining boshqaruvi" mavzusida fikrlar guruhi shakllantirildi.

Rolli o'yinlar: O'quvchilar ekologik masalalar bo'yicha konferensiya formatida o'zaro muloqot qilishdi.

3. Natijalar va tahlil

Metodlarni qo'llash natijalari shuni ko'rsatdiki:

Ijodiy fikrlash ko'rsatkichlari 25% ga oshdi.

O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada kuchaydi.

O'quvchilar mustaqil ishlashga moyilligi ortdi.

Ta'lim haqida so'z ketganda albatta boshlang'ich sinfdan berilgan bilimga nazar tashlanadi. Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda – bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi.

O'zliksiz ta'limning qay bo'g'ini rivojlanmasin boshqa bo'g'inlarga shuningdek, jamiyat, davlat rivojiga ta'sir yetish tabiiy ekanligini yurtimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov muallifligida ishlab chiqilgan. Bevosita rahbarligida hayotga tatbiq qilingan va dunyo mutaxasislari e'tiboriga sazovor bo'lgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining muvaffaqiyatli natijasida hayotning o'zi ko'rsatdi[1]. Hozirgi kunda darslarni tashkil etishning zamonaviy usullaridan biri interfaol metodlardan foydalanishiga keng ahamiyat qaratilmoqda. Interfaol metodlar yordamida har bir darsda o'quvchilarni faol qilish jarayoniga undash, mustaqil ravishda aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratish mumkin.



Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin.

Yangi avlod darsliklari taqdimotida tanishtiriladigan o'quv-metodik komplekslar (O'MK) asosini Tanqidiy fikrlash, Jamoaviy ishlash, Ijodkorlik (Kreativlik) va Muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish (4K) tamoyili tashkil etadi. Bu komplekslar birgalikda bir- birini to'ldirib turadi. O'quv metodik komplekslar Android, IOS platformalari va "Matematika" va "Alifbo" mobil ilovalari uchun o'zbek va rus tillarida ongni o'stiradigan o'yinlar to'plamiga ega interfaol o'quv dasturini ham o'z ichiga oladi.

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Xulosa

O'quvchi yoshlarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun interfaol metodlar samarali vosita hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga "muammo asosida o'qitish", "aqliy hujum" va boshqa metodlarni muntazam ravishda qo'llash yoshlarning ijodiy salohiyatini oshirish imkonini beradi. O'quvchi yoshlarni ijodiy fikrlashga o'rgatish orqali kelajakda jamiyat uchun kreativ va innovatsion kadrlarni yetishtirish mumkin. Interfaol metodlar bu jarayonlarning ajralmas qismi bo'lib o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ularni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish uchun o'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirishi lozim.



Tavsiya etiladi:

1. O'qituvchilar uchun interfaol metodlarni qo'llash bo'yicha seminar va treninglar tashkil etish.
2. Har bir fan bo'yicha metodlarni moslashtirish va innovatsion darsliklar yaratish.
3. Yoshlarning qiziqishlarini inobatga olgan holda yangi interfaol texnikalarni ishlab chiqish

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qulaxmetova M. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish: o'quv qo'llanma. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2011. – 80 b
2. Shakirova Ch.T. Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o'qitish samaradorligini oshirish. Ped.fan.nom. diss – Toshkent 2009 – 167 b. 14
3. Sharipov Sh.S. Kasb ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. – Toshkent: Fan 2005. – 131 b
4. Sultonov, I. “Innovatsion pedagogik texnologiyalar.”Toshkent:Ma'rifat ,2023
5. Vygotskiy, L.S (1986) Ijodiy fikrlash va ta'limning psixologik asoslari. Moskva: Pedagogika.
6. Dewey, J. (1938). Education and Experience. New York: Macmillan.
7. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2004). Cooperative Learning and the Development of Critical Thinking. Educational Psychology Review, 16(4), 409–430.
8. Omonov, Bahodir Nurillayevich. "MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.21 (2024): 529-535.



9. Очилова, Гўзал Араловна. "Чучук Сув Танқислиги Муаммосининг Марказий Осиёга Хавфи. Омонов Баходир Нуриллаевич."
10. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения." *Gospodarka i Innowacje*. 44 (2024): 235-242.